

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MUSIQIY TA‘LIM KAFEDRASI

NURULLAYEV FARRUX GAYBULLOYEVICH

VOKAL VA ZAMONAVIY MUSIQA



O`quv uslubiy qo`llanma

Buxoro 2022

Tuzuvchi: *Nurullayev Farrux Gaybulloyevich «Musiqiy ta'lim» kafedrasida
doçenti, n.φ.φ.ð. (PhD)*

Mas'ul muharrir: *Madrimov Bahrom Xudoynazarovich «Musiqiy ta'lim»
kafedrasida professori, pedagogika fanlari nomzodi*

Taqrizchilar: **Do'stov Sanoqul Do'stovich** «Musiqiy ta'lim» kafedrasida
professori

Mustafoyev B.I. Buxoro viloyat MOI dotsenti.

*Mazkur metodik qo'llanma 5111100 "Musiqqa ta'limi" yo'nalishi talabalari
uchun mo'ljallangan bo'lib, unda «Vokal va zamonaviy musiqqa» fani dasturiga
asoslangan holda tuzilgan. Unda «akademik va estrada xonandalik» yo'nalishiga
javob beradigan ashulachilik ovozi tarbiyalash to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar
berilgan*

*Mazkur metodik qo'llanma Buxoro davlat universitetining o'quv uslubiy kengashining
2022-yil 30-maydagi 10-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan.*

Kirish

Ma'lumki mustaqil davlatimizning kelajagi bo'lmish o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama komil inson etib tarbiyalashga jiddiy e'tibor berilmoqda. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yangi pedagogik texnologiya asosida ta'lim-tarbiya berish, ularni hozirgi zamon talabiga to'la javob beradigan etuk mutaxassislar qilib tayyorlash ko'zda tutilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmada mamlakatimiz o'rta va oliy musiqa o'quv dargohlarida professional vokal san'ati darslarini o'tish uslublari ilmiy asosda har tomonlama yoritib berilgan. Dunyoning rivojlangan davlatlari hamjamiyatidagi etalon ya'ni qolip sifatida tan olingan vokal ijrochiligi qonun-qoidalarini milliy qo'shiqchilik san'atimiz an'alarini e'tibor olgan holda bekamu-ko'st o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Uslubiy qo'llanma «Vokal va zamonaviy musiqa» fani dasturiga asoslangan holda tuzilgan. Unda «akademik va estrada xonandalik» yo'nalishiga javob beradigan ashulachilik ovozni tarbiyalash to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar berilgan.

Nazariy bilimlarni o'zlashtirish talaba-xonandalar uchun murakkab jarayondek tuyuladi. Ammo dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan joy olish uchun davlatimizning xonanda-talabalari kelajakda o'qituvchi sifatida ovoz haqida kerakli ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim. Faqat shundagina ular amaliyotda paydo bo'lgan muammolarga bema'lol ilmiy-nazariy echimlar topishlari mumkin bo'ladi.

Qo'llanmada ashulachilik jarayonining turli masalalari yoritilgan. Vokal pedagogikasining asosiy tamoyil va uslublari, ovoz hosil bo'lishining psixologik, fiziologik va akustik asoslari, ashulachilik malakalari shakllanishining asosiy yo'llari kabilar shular jumlasidandir. SHu bilimlar talabaga zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan yaqindan tanishib olishga imkon yaratib beradi.

Vokal va zamonaviy musiqa fanining maqsad va vazifalari



“Vokal va zamonaviy musiqa” fani “Musiqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarga vokal va zamonaviy musiqa (estrada xonandaligi) san’ati ijrochiligi bo‘yicha bilimlarni o‘rgatuvchi fanlardan biridir. O‘quvchilarni yuqori malakali mutaxassis sifatida tarbiyalashda vokal ijrochiligi hamda zamonaviy musiqa – estrada xonandaligi bo‘yicha nazariy bilimlarning o‘rni kattadir.

Mazkur bilimlar “Musiqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishi talabalarining kelajakda maktabgacha ta’limmuassasalari, umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni vokal hamda estrada xonandaligi bo‘yicha ijrochilik mahoratini professional darajada etishishiga ma’lum darajada xizmat qiladi.

“Vokal va zamonaviy musiqa” fanining asosiy maqsadi – vokal san’ati vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining estetik va badiiy didini tarbiyalash, professional uslubda kuylash malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Alohida e’tibor tovush apparatining texnik rivojiga, artistik mahoratini rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilishi kerak. Mazkur fan yuzasidan talaba davr talabiga binoan dunyo qarashi kengbo‘lgan, yaxshi insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog‘onalari xususan yangi paydo bo‘lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi yuzasidan etarlicha bilimlarni beradi.

Fanning asosiy vazifalari qatorida dars jarayonida talabalarga ta’lim va tarbiya berish, ularni dunyo standartlariga to‘la javob beradigan chuqur bilimli, yuqori malakali mutaxassis qilib tayyorlash, vokal va estrada xonandaligi ijrochiligining tizimlilik, izchillik, oddiydan murukkabga qarab rivojlaniishi, ijrochilik mahoratini egallashida yakka tartibda yondashish kabi qator didaktik tomonlari bilan tanishtiradi.

Vokal va zamonaviy musiqa (estrada xonandaligi)da tovush yo‘llarining tuzilishi va harakatlanishi xususiyatlarini, vokal va estrada xonandaligi to‘g‘risidagi asosiy tushunchalarni, ovoz hosil qilish va uning turlarini, xonandalik nafasi, artikulyatsiya, intonatsiya va dinamik belgilarni bilishi, nafasni qovurg‘aning pastidan, asosan qorindan shovqinsiz olish va uni tejimli sarflash, barcha registrlarda yuqori holatda ovoz hosil qilib kuylay olish, sof va toza kuylash, so‘zlarni orfoepiya¹ qoidalariga muvofiq talaffuz qilib kuylash, turlicha ovoz hujumlari bilan kuylayolish, legatovastakkatoda kuylash, o‘zbek va Evropa estrada va vokal asarlarining klassik va zamonaviy uslubiy yo‘nalishlarining manerali ijrosi, yakka va turli guruxlar bilan mustaqil ijodiy ishlash va kontsertfaoliyatini yurgizish, mikrofonni erkinishlatish qoidalarini bilish va unga rioya qilish, xonanda ovozining registrlari va badiiy texnik

¹Вокал ижрочилиги жуда тўғри талаффуз қилиш қоидалари.

imkoniyatlarini, ovozni ishlatish va qo'yish mashqlarini, o'quvchi bilan asar ustida ishlab, sahnaga chiqishga tayyorlash kabi ko'nikmalarni egallashi talab etiladi.

SHuningdek, mazkur fan asosida bo'lajak musiqa mutaxassislarini vokal siru-asrorlarini chuqur bilish va yuqori professional uslubda kuylay olish, musiqa asbobi jo'rligida hamda uni son yoki ko'p ovozli ansambllar jo'rligida yakka xonanda sifatida kuylash, ovoz va musiqa asbobi uchun yozilgan asarlarni ifoda etish shtrixlari, uslub (stil) va harakteri nuqtai nazardan tahlil qilish, boshlang'ich va o'rta ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritish, o'quvchi ovozini rivojlantirish, ovozdagi nuqsonlarni bartaraf etish, o'quvchiga dastur tanlash, dastur ustida ishlash, estrada qo'shiqchiligi tarixi va rivoji bosqichlari, jo'rnavoz va fonogramma minus bilan ishlash yo'llari, estrada musiqasining klassik va zamonaviy uslubiy yo'nalishlarini, vokal ovozi egistrlari, xajmini va ovoz imkoniyatlarini, vokal nota matnlarini o'qish va tahlil qilishni, xonandalik pedagogikasining asosiy tushunchalari, xonandalik ovozlar klassifikatsiyasi, musiqiy qobiliyat psixologiyasi, tovush apparatining tuzilishi va ishlashi, o'zbek va dunyodagi mashhur estrada xonandalarining ijro uslublarini bilish kabi bilimlarini o'rganadi.

Kursning asosiy mazmuni ovoz xosil qilish malakalari va fiziologiyasini o'rganish hamda uni amalda qo'llay olish, shuningdek, vokal va estrada xonandaligi malakalarini egallashdan iborat.

Qo'shiq – aytim tushunchasi va uning inson hayotidagi o'rni.

O'zbek halqi tarixi va uning musiqiy ijrochiligi o'zi kabi tarixan boy va rang barangdir. Aholining ming yillar mobaynida ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va mavqei, xursandchiligi, dardu-alamini qo'shiq va kuy orqali namoyish qilishga harakatqilgan. Nazarimizda uni udalagan. Musiqaga shu jumladan, qo'shiq kuylashga muxabbat xalqning qoni orqali butun vujudiga ong-shuuriga, yuragiga singib ketgan.

Inson qadimdan atrof muhitda ro'yberayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlar, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik his-tuyg'ularni so'zlar, so'z yig'indisi, raqslar ifodalagan. Yana keyinroq odamlar o'zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o'simliklar, tog'lar, suvlarning paydo bo'lishini izohlovchi to'qima hikoyalar o'ylab topganlar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo'shiqlarini to'qiganlar. Qabila-urug'ning mard va jasur yigitlari haqida, ularning g'aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo'lgan. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo'lib yashayotgan aholi o'rtasida shuhrat topgan.

Ma'lumki, musiqa san'ati estetik idrokning bitmas tuganmas manbaidir. Inson qalbi vayuragini zabt etuvchi maftunkor dunyodir. Inson doimo go'zallikka intilib, uni sevib, undan zavq-shavq olib yashaydi. SHuningdek, ushbu kundalik hayotda shu go'zallik qoidalariga amal qiladi va undan oqilona foydalanadi.